

ZAMONAVIY JAHON MOLIYA TIZIMIDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING ROLI

Abduqodirova Mukarram Baxtiyor qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy jahon moliya tizimi va unda xalqaro moliya institutlarining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Xususan, Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi moliya institutlarining global moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, ushbu institutlarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga ta'siri, ularning kredit siyosati, texnik ko'mak dasturlari va moliyaviy hamkorlik mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda xalqaro moliyaviy institutlar faoliyatining samaradorligi hamda ularning zamonaviy muammolarga moslashuvchanligi bo'yicha tahliliy fikrlar beriladi.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya institutlari, jahon moliya tizimi, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, moliyaviy barqarorlik, kredit siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar, texnik yordam, global iqtisodiyot.

Аннотация. В статье анализируется современная мировая финансовая система и роль в ней международных финансовых институтов. В частности, будет подчеркнута роль финансовых институтов, таких как Международный валютный фонд (МВФ), Всемирный банк и Европейский банк реконструкции и развития, в обеспечении глобальной финансовой стабильности. В нем также рассматривается влияние этих институтов на экономику развивающихся стран, их кредитную политику, программы технической помощи и механизмы финансового сотрудничества. Исследование дает аналитические данные об эффективности международных финансовых институтов и их способности адаптироваться к современным вызовам.

Ключевые слова: международные финансовые институты, мировая финансовая система, Международный валютный фонд, Всемирный банк, финансовая стабильность, кредитная политика, развивающиеся страны, техническая помощь, мировая экономика.

Abstract. This article analyzes the modern global financial system and the role of international financial institutions in it. In particular, the role of financial institutions such as the International Monetary Fund (IMF), the World Bank, and

the European Bank for Reconstruction and Development in ensuring global financial stability is highlighted. The impact of these institutions on the economies of developing countries, their credit policies, technical assistance programs, and financial cooperation mechanisms are also examined. The study provides analytical views on the effectiveness of the activities of international financial institutions and their adaptability to modern problems.

Keywords: *international financial institutions, global financial system, International Monetary Fund, World Bank, financial stability, credit policy, developing countries, technical assistance, global economy.*

Jahon iqtisodiyotida xalqaro moliyaviy tashkilotlar (XMT) dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim subektlar qatoriga kiradi. Yuqori o‘rinda Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tashkilotlari turadi. Bundan tashqari, o‘z firmalariga ega bo‘lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA), Jahon banki (JB) yoki Butunjahon banki tashkilotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. 1944 yilda XVF va XB muvofiqlashtiruvchi valyuta ko‘rinishiga aylandi. Ushbu banklarning faoliyati ba’zi bir jihatlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Xalqaro valyuta fondi xalqaro savdo sohasidagi turli cheklanishlarni bartaraf etib moliyaviy yordam ko‘rsatadi. 80- 90-yillarda XVF yirik moliyaviy markazga aylandi. Uning faoliyatida asosiy o‘rinni xo‘jalik tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishi va qayta qurilishiga kreditlar berishdir. Valyuta fondi o‘z kreditlarini asosan iqtisodiy rivojlanish dasturlariga ajratadi. Iqtisodiy rivojlanishni moliyaviy ta’minalash fondi esa uni xalqaro pog‘onaga ko‘tardi, natijada Valyuta fondi sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordamini ko‘rsata boshladi. Rivojlangan kapitalistik davlatlar esa XVFdan foydalanmaydilar.

Jahon banki – jahon xo‘jaligi sifatida tan olinib, yirik investitsiya siyosati yuritadi. Ushbu bank XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida rivojlanayotgan mamlakatlarga, shuningdek iqtisodiy tanglikka uchragan davlatlarga loyihalarning umumiy narxidan 30 %ini tashkil etadi. Jahon banki o‘zining yarim asrlik faoliyati davomida 300 mlrd. AQSH doll.i miqdoridagi kredit ajratgan. Jahon bankining shohobchalari ham alohida vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan. Xalqaro moliyaviy korporatsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarning xususiy sektori rivojlanishiga yordam bersa, xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyalari esa qashshoq mamlakatlarga zaruriy yordam ko‘rsatadi.

Xalqaro toifadagi muammolarni hal qilishda milliy diplomatiyaning kuchi yetarsiz holga kelgach, davlatlar ushbu yo‘nalishdagi muammolarni hal qilishning munosib uslublarini izlay boshladilar.

Jahon urishidan so‘ng xalqaro moliyaviy tashkilotlar o‘sib borishini yaqqol kuzatish mumkin. Bu holat global muammolarni faqat global muhitda yechish kerakligini yana bir bor isbotladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar murakkab iqtisodiy mexanizm sifatida bir tomonidan bozorga xos o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lsa (XIMning moddiy asosi hali ham jahon bozori hisoblanadi), ikkinchi tomondan, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, alohida mamlakatlar va hududlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni osonlashtiruvchi davlatlararo tuzilmalarni yaratishni talab etadi. Ayni paytda shuni qayd etib o‘tish kerakki, birinchi (1914-1918 yillar) va ikkinchi (1939-1945 yillar) jahon urushlari orasida xalqaro tashkilotlarni gurkirab vujudga kelish jarayoni (shu davrd Xalqaro mehnat tashkiloti, o‘zining «Inkoterms» kabi tijoriy hujjatlari bilan taniqli bo‘lgan Xalqaro savdo palatasi, Xalqaro hisobkitoblar banki tashkil etilgan) va ayniqsa 40- yillarda ikkita to‘qnashuvni boshidan kechirgan davlatlar tarixidagi favqulotda holatlar va 1929-1932 yillardagi chuqur iqtisodiy tanazzul bilan bog‘liq. Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning vujudga kelishining ikkinchi «to‘lqini» va harakatdagi faoliyatining faollashuvi ikkinchi jahon urushidan so‘ng mustamlakachilik tizimining parchalanishi hamda 60-70 yillardagi iqtisodiy chayqalishlar bilan bog‘liqdir. Va nihoyat, 80- yillarning boshlarida xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyatida uchinchi bosqichning boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida totalitar tizimlarning (cobiq SSSRni) inqirozga uchrashi va yangi ming yillik ostonasida insoniyatning global muammolarini keskin kuchayishi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Jahonining ko‘plab mamlakatlarining hukumat organlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi muammolarni mustaqil hal eta olmadilar va natijada ular qayd etib o‘tilgan muammolarni hal etishda birgalashib harakat qilish usullarini ishlab chiqara boshladilar. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida iqtisodiy gullab-yashnash va jahon xalqlari farovonligini ta’minlash masalasi bilan shug‘ullanvchi minglab xalqaro tashkilotlar hisobga olingan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

1. Insonlar hayotining bir biriga bog‘likligining yanada o‘sishi;
2. Sanoat revolyusiyasi va ilmiy yutuqlar insonlarni bir-biridan ajratib turgan masofalarни qisqartirishi va xalqaro munosabat va hamkorlikni kengaytirishi;
3. Savdo, valyuta-moliya munosabatlari, kapital bozori umuman iqtisodiy o‘sish;
4. Davlatlarning barcha sohada bir – birlariga bog‘liqligining o‘sishi;
5. Duyodagi umumi resurslardan oqilonan foydalanishning zarurligini chuqurroq anglash.

Davlatning xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'lishi uning har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Chunki xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'lish, uning boshqa a'zo davlatlari bilan ham keng hamkorlikni yo'lga qo'yishni ta'minlaydi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar topologiyasi haqida gapirganda, ikkita mezondan (jug'rofiy qamrovi kengligi va faoliyat xususiyatlari) foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchisidan kelib chiqib, ikki tomonlama, hududiy va global tuzilmalar ajratib ko'rsatiladi. Ikkinci mezonni qo'llagan holda maxsuslashtirilgan (sohalar bo'yicha) va global tashkilotlarga ega bo'lamiz. Bularning ichida ayniqsa 1945 yilning 24 oktabrida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tasarrufidagi iqtisodiy hamkorlik organlari alohida o'ringa ega. BMT – ikkinchi jahon urushidan so'ng Antigitler koalitsiyasi a'zolari tomonidan tashkil etilgan eng universal, obro'-e'tiborli va son jihatdan eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Davlatning xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'lishi uning har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Chunki xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'lish, uning boshqa a'zo davlatlari bilan ham keng hamkorlikni yo'lga qo'yishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Globe Newswire (2022). Digital banking market size to surpass \$10.3 trillion by 2028 – Comprehensive research report by facts and factors. <https://www.globenewswire.com/en/news-release/2022/09/13/2515128/0/en/Digital-Banking-Market-Size-to-Surpass-10-3-Trillion-by-2028-Comprehensive-Research-Report-by-Facts-Factors.html>

2. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.

3. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

4. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsyu uchenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.

5. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rink Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
6. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
7. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
8. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
9. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rink Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
10. Ikromovich, I.F. (2022). Analysis of resource taxes based on tax analysis technique. International Journal of Management IT and Engineering, 12(12), 65 - 71.
11. Isaev, F. (2021). Advantages of applying tax incentives in the conditions of economic crisis. International Journal of Marketing and Technology, 11(8), 15-25.